

INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM

Sayidazimov Asroriddin Tohirjon o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

O'zbekistonda har bir yilni hayotning ma'lum bir sohasiga bag'ishlash an'anasi 1997-yildan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. Shavkat Mirziyoyev ushbu an'anani 2018-yildan buyon davom ettirib kelmoqda. O'tgan yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalar hamda ijtimoiy rivojlanish, ilm-fan va raqamli iqtisodni rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash hamda inson manfaatlarini ta'minlash va mahallani mustahkamlash kabi ezgu maqsadlar qo'yilgan edi.

Prezident Mirziyoyevning aytishicha, yilga nom tanlash uchun aholidan tushgan «20 mingga yaqin taklif» muhokama qilingan. «Juda ko'p o'ylandik», dedi u. Davlat rahbari 2023-yilga berilgan nomni izohlar ekan, Yusuf Xos Hojibdan iqtibos keltirdi: «Zakovat bor joyda ulug'lik, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi». Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Toshkentdagi «Kongress-xoll»da parlamentga Murojaatnoma yo'lladi. U o'z chiqishida kelgusi 2023-yilgi «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deb nom berishni taklif qildi. Ushbu taklif yig'ilish qatnashchilari tomonidan gulduros qarsaklar bilan qo'llab-quvvatlandi.

"Nima uchun yilga bunday nom berayapmiz? Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Aslida ham, bizning eng bebaho boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz. Men bu fikrlarni o'rganib, bir narsaga amin bo'ldim. Aholimiz bizdan maktab, bog'cha va shifoxonalar ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot sifatini oshirish, mahallada yo'l, suv, elektr, transport muammolari hal qilish, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni adolatli ta'minlash, ovoragarchilik, byurokratiya, eng asosiysi, korrupsiyani yo'q qilishni kutmoqda. Ko'tarilgan masalalar aniq va o'rinlidir. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz bu muammolarni yechishimiz shart», — dedi Mirziyoyev.

Prezident yurtimizda bir qator yutuqlarga erishilganini, hususiy, keng kalamli va samarali ishlab chiqarishni natijasida belgilagan ichki mahsuloti hajmi birinchi bor \$80 milliard dan oshganini qayd qildi. Shu yerda o'zida iqtisodiyotimizga \$8 milliard to'g'ridan-to'g'ri horijiy investlar tomonidan jalb etilgan, eksport esa \$19 milliardga yetgan.



Vazirlik va idoralar sonini ikki baravardan ortiq - 28 tagacha, davlat hizmatchilari soni 30-35% ga qisqartirish rejalashmoqda. Bundan tashqari, vazirlar va xavfsizlik rahbarlariga qo'yiladigan talablar juda muhimdir.

2023-yilda tayor mahsulotni eksport qilish hakmi qoshimcha \$4 milliard ga ishlab chiqarish qo'yilmoqda.

"Yangi O'zbekiston - oziqbardosh mahsulot yurti" dasturi o'z naitjasinini bermoqda. Bir yil ichida qariyb 2 mingta tadbirkor birinchi bor horijiy bozorlarga chiqdi. Iqtisodiy yillarda eksport qiluvchilarning transport va boshqa harajatlarini amaliyoti davom ettiriladi. Respublikada uy-joylar qurish hajmi 1.5 baravarga ortdi.

"Mortgage" dasturi bo'yicha birinchi navbatda turar joyga ehtiyoji bor yosh oilalar uchun eng qulay shartlar asosida-uylar barpo qiladi.

Jamoat transporti vaziyati tubdan o'zgartiriladi. Toshkent shahri uchun 1 000 avtobus soti olish va 7 ta yer usti metro stansiyasisini ochish rejalashtirilgan.

So'nggi olti yilda O'zbekiston aholisi soni 13% ga oshdi, sanoat korxonolari soni esa - 2 baravar, 45 mingtadan 100 mintaga yetdi. Bundan tashqqri yil davomida 1,00 MVt quvvatga ega elektr stantsiyasi ishga tushirildi.

Prezident murojatnomada ajratilayotgan mablag'lar har bir bemorga yetib borishi uchun tibbiy davlat sug'urtasiga o'tishni va davlat tez tibbiy yordamini berishini alohida ta'kidlagan edi. Kelasi yili bu tizim Toshkent shahrida ishga tushirildi, so'ng boschma-boschich boshqa viloyatlarda ham joriy qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim/>
2. <https://oz.sputniknews-uz.com/20221220/prezident-2023-yil-nomini-elon-qildi-30887391.html>
3. Batafsil: https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/2023_yil_-_insonga_etibor_va_sifatli_talim_yili

